«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodi. Mazkur metod Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan. «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodining mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir ta'lif oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish hamda ta'lif oluvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga 2 qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir. Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg'ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

1-bosqich. Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'lif oluvchilarni o'zida biriktirgan hamda son jihatdan teng bo'lgan kichik guruahlarni shakllantirish.

2-bosqich. Guruahlarga hal etish uchun topshiriqlan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

3-bosqich. Guruhlar tomonidan muayyan g'oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).

4-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish.

5-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya'ni ularni to'g'rilik darajasi, yechimini topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlar yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish. Yuqorida mohiyati bayon etilgan «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo'naliшlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida birdik muvaffaqiyatli qo'llash mumkin. Metodni qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

1. O'quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;
2. Vaqtini iqtisod qilish;
3. Har bir o'quvchini faollikkha undash;
4. Ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

Ko'rinish turibdiki ushbu metod ta'lif oluvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish, vaqtini iqtisod qilish, har bir ta'lif oluvchini faollikkha undash, ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirishga yordam beradi. Maskur uslublardan tashqari juda ko'p metodlar ham mavjudki ulardan o'qituvch dars mavzusiga mos uslubni tanlay bilishi o'ta muhimdir. Quyida keltiriladigon dars ishlanmalar namuna sifatida berilmoqda. Keltirilgan mavzular ayrim maktablarda o'qituvchining darsni tashkil etish mahoratiga qarab o'quvchilar tomonidan yengil o'zlashtirishi mumkin. Aksariyat o'quvchilar tomonidan mazkur darslarni o'zlashtirishi qisman qiyin kechayotGANI tajribada korilmoqda. Suningdek, dars ishlanmani turli usulda shakillantirishni mumkinligi e'tiboringizga havola etildi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
2. Farberman. B.L. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". T: 2001 y.



BIOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR

Faxriyeva Nargiza Jaloliddin qizi
Navoiy viloyati, Zarafshon shahar
4-maktab biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada biologiya darslarida innovatsion texnologiyalar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Biologiya, tafakkur mashqi, jadval, o‘simlik, muloqot....

Biologiya fanining vazifasi o‘quvchilarga tirik organizmlarning tuzilishi, kelib chiqishi, ko‘payishi, xilma-xilligi, o‘zaro munosabatlari, muhofazasi, tabiat va inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni shakllantirish, bu borada fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo‘llash mahoratini shakllantirishdan iboratdir. Har bir biologiya fani o‘qituvchi shu vazifalarga amal qilishi lozim.

“Ekspres test” usuli eng samarali usul hisoblanadi. Bunda mavzu to‘liq va aniq tushuntiriladi.




“Juft-juft muloqot ” usuli orqali sinf o‘quvchilarini mavzu yuzasidan bilimlarini sinash, va xulosa qilish ko‘nikmasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda yonma-yon o‘tirgan o‘quvchilarga mavzuga oid topshiriqlar berilib, yechimini birgalikda topishga undash lozim.

Masalan: O‘z shaklini turlicha o‘zgartiradigan bargli o‘simliklar rasmini chizing va almashgan



holatini izohlang. Yorug‘liksevar o‘simliklar barglarini chizib, ularda barglarning joylashuvi haqida ma’lumot bering.

“Tanlash ixtiyoriy, bajarish majburiy” usuli. Bunda o‘quvchilarga tarqatmalar beriladi. Ular ixtiyoriy tanlaydi, lekin majburiy javob beradi.



“Jadval” usuli. Bunda mavzuga oid ma’lumotlar jadval tarzida taqdim etiladi.

Oqsillar tarkibidagi aminokislotalar		
Halqasiz (atsiklik) aminokislotalar	Halqali (siklik) aminokislotalar	
1. Glitsin	8. Leysin	15. Fenilalanin.
2. Alanin.	9. Izoleysin.	16. Tirozin.
3. Serin.	10. Treonin	17. Triptofan.
4. Sistein.	11. Lizin.	18. Gistidin.
5. Sistin.	12. Arginin.	19. Prolin.
6. Metionin.	13. Asparagin kislota.	20. Oksi prolin.

VITAMIN B₁₃

Oqsillar almashinuvida ishtirok etib, jigar ishini me’yorlashtiradi, reproduktiv sog’likni ta’minlaydi

Manbalar: Sut va sut mahsulotlari, jigar, achitqilar

Ортқистотаси



“Buni bilgan yaxshi” usuli. Bunda o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha o‘rgangan bilimlarini hayotish tajribalar, qiziqarli ma’lumotlar asosida ko’rsatib beriladi.

Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo



mas’uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebahos merosi, milliy qadriyat va an’analalarimizga munosib bo‘lish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Biologiya (Ma’lumotnoma) Toshkent -2003.
2. “Biologiya o`qitish metodikasi” G.O`rinova 2020-y



ADABIYOT NAZARIYASIDA NAZM VA NASR MUAMMOSI

Normurodova Fayoza Boymurod qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
o‘zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs talabasi
fayozanormurodova1@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonida kelgan nazm va nasr tushunchalari tahlil qilingan. Maskur istilohning mumtoz adabiyotimiz tarixi va hozirgi adabiyotshunosligimizdagi mavjud qarashlar haqida fikr yuritilgan. Xususan Ahmad Taroziy «Funun ul-balogs‘a», Abduratuflning Fitratning «Adabiyot qoidalari» asarlarida nazm va nasr istilohining ishlatalishi, unga adabiy termin sifatida berilgan ta’riflar qiyosiy aspektida o‘rganilgan. Maqolada Hazrat Navoiyning nazm va nasr haqidagi fikrlari yuqoridagi adabiyotshunos olimlarning qarashlari bilan qiyoslab umumlashma xulosa chiqarilgan.

Tayanch tushunchalar: nazm, nasr, sochma, tizim, badiiy asar, Qur’oni Karim, shakl va mazmun.

Mumtoz adabiyotimiz tarixi va hozirgi adabiyotshunosligimizda nazm va nasr istilohlari keng ko‘lamda qo‘llanib kelinadi. Asosan she’riy asarlarga nazm istolohini, epik asarlarga esa nasr istilohining qo‘llanishini kuzatamiz. Bu ikki so‘zning lug‘aviy ma’nosи arab tili lug‘atlarida nazm bu «tizim», nasr esa «sochim» ekanligini ko‘ramiz. Adabiyotshunosligimizda bu ikki so‘z ikki alohida tushuncha sifatida talqin etiladi. Istilohlar haqida adabiyotlarda keltirilgan turli qarashlar va ularning izohlarini keltirib o‘tamiz:

Mumtoz adabiyotimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 15-asrda Ulug‘bek davrida yashagan adabiyotshunos olim Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balogs‘a» asarida «nazm» va «nasr» istilohlari «adabiy nav»lar tushunchasi bilan ifodalanadi. Ahmad Taroziyning fikricha, inson hayotini, uning ma’naviy dunyosini badiiy adabiyotsiz tasavvur etish qiyin.

Taroziyning «Funun ul-balogs‘a» asarida nazm va nasrga muallif «istisvob bobinda murattab» (to‘g‘rilik bobida tartibli) nutqni nazm va «avroq visoqinda parishon» (varaqlar maydonida sochilgan) nutqni nasr deb ataydi. Adibning fikricha, agar ijodkor o‘z fikrini nazmda bayon qilsa oddiy ilmlardan bexabar nodon kishi unga hujum qilishga va buzishga qodir bo‘la olmaydi. Bunda nazmni Shayx Ahmad Taroziy qat‘iy ma’rifat va hikmat muhofazasi uchun muhim ifoda shakli deb hisoblaydi.*[D.Yusupova. 2020 ,196-bet]

Bu fikrlarni davom ettirgan holda mumtoz adabiyotimizning ulug‘ darg‘alaridan biri Hazrati Alisher Navoiy ijodida ham so‘zning qadr-qimmati xususida ta’riflar berilgan va «Xamsa» asarining birinchi dostoni «Hayrat ul -abror» (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) ning 14-15-boblari so‘z ta’rifiga bag‘ishlangan. Hazrat Navoiy nazmning qimmati, so‘zdagi ma’no, uning shakliga muvofiqligi, shakl va mazmun umuman olganda ijod masalasiga e’tibor qaratadi. Masalan quyidagi Navoiyning 2 bayti misoldida ko‘ramiz:

Nazm anga gulshanda ochilmog‘i
Nasr qaro yerga sochilmog‘i
Bo‘lmasa e’joz maqomida nazm
Bo‘lmas edi Tengri kalomida nazm

Alisher Navoiy nazm va nasr istilohi haqida shunday deydilar: Gulshanda gullarning ochilib turishi bu nazm, ularni qaro yer uzra sochilib-to‘kilib yotishisi esa nasrdir.

Nazm va nasr haqidagi mulohazalarni davomini 20-asr boshlaridagi o‘zbek adabiyotshunosligiga nazar tashlasak Abdurauf Fitrat asarlaridan topamiz. Fitrat Alisher Navoiyning fikrlarini davom ettirgan holatda nazm tushunchasi o‘rniga «sochma» istilohini qo‘llaydi. Adib «Adabiyot qoidalari» asarida yozadiki: so‘zlarni, gaplarni uyuşhtirib tuzilgan asarlar adabiy bo‘lsin- bo‘lmasin, bitta yo‘sindan birida tuziladi: sochim (nazm) yoki tizim (nasr). Fitratning qarashi bo‘yicha bir asarda so‘zlar, gaplar belgili bir ohangga boylanmasdan, belgili bir o‘lchov bilan o‘lchanmasdan tarqalib, sochilib tuzilgan bo‘lsa u asar sochim (nazm) yo‘lida tuzilgan bo‘ladi. Agar bir asarda gaplar belgili bir ohanga boylanib, belgili bir o‘lchov bilan o‘lchanib tuzilgan bo‘lsa u asar tizim (nasr) bo‘ladi degan jumlalarni keltirib o‘tadi.



Fitrat yana aytadiki: Bizda eski madrasadan qolgan yanglish bir fikr bor .Vazn, qofiyasi bo‘lgan har bir so‘z to‘dasiga «she’r» deymiz, chunki burungi fors-arab adabiyotshunoslari she’rni» qofiyasi, vazni bo‘lgan gapdir» deb ta’rif qilar. Shuningdek Abdurauf Fitrat she’rni 2 turga bo‘ladi bular: mazmun she’rlar (tizim she’rlar) va mansur she’rlar (sochim she’rlar). Fitrat yozadiki: she’rni she’r bo‘lishiga vazn va qofiyaning hech dahli yo‘qdir. Vaznu qofiya bo‘lib she’r bo‘lman parchalar bo‘lgani kabi vaznu qofiyasiz (sochim) «nazm» she’r parchalari ko‘pdir. Bularga misol tariqasida adib Cho‘lponning «Kleopatra»si sochim (nazm) yo‘sindida yozilgan vazn, qofiya yo‘q, biroq bir she’rdir deydi. So‘fi Olloyorning «Sabat ul-ojizin» degan vaznli, qofiyali ko‘p parchalari bordirkim, she’r deyishga yaramaydi degan xulosalarni beradi.

E’tibor berib qaraydigan bo‘lsak 20-asrga kelib Fitratning qarashlari bo‘yicha nazm va nasr istilohlarining o‘rni va ma’nosini almashib qolganligini kuzatamiz. Fitratning nazdida nazm bu-sochim, nasr bu-tizim. Endi shu yerda muammoli vaziyat kelib chiqadi Ahmad Taroziy va Navoiyning qarashlari o‘zgacha, 20-asrga kelib esa Fitratda bu ikki tushunchani teskari qo’llanishi va hozirgi vaqtida adabiyotshunoslighimizda bu istilohlar hal etilmagan muammo sifatida qaraladi. O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi qaysi bir qarash eng to‘g‘risi va aslini olganda nazm va nasr nima o‘zi?

Navoiy hazratlarining baytini tahlil qilish jarayonida quyidagi munosabatlarni kuzatishimiz mumkin: Hazrat Navoiyda ifodalangan nazm va nasr ikki alohida tushuncha bo‘lmay, bir tushunchaning nisbatlanishidir. Nazm istilohining asosida nizom, ma’nosidan kelib chiqib tizim turadi. Bu shunday tizimki, har taraflama mukammal nizomga mos tushuvchi ijod namunasi. Navoiy hazratlari gulning gulshanda saf tortib ochilishini nazm deydi, ya’nikim bog‘da gullarning bir tekisda tizilib ochilishi bir tizimga solingan, samoviy nizomga asoslangan nazmdir. Nazm shunday nizomki, bunda yozilgan asarlar hamma uchun mukammalikka ega xos va ommaga birdek manzur bo‘ladi. Bu misradagi nazm tushunchasini shunday tushunilsa yanada aniqroq o‘z ma’nosini ochiladi. Bizning nazarimizcha, bu baytdagi ikki istilohga lirik va epik asar sifatida qarash o‘zini oqlamaydi. Alisher Navoiy asarlari Qur’oni Karimga tayanganini ko‘ramiz. Qur’oni Karim barcha insonlar uchun, hammaga birdek bu maqomga boshqa kitoblar tenglasha olmaydi. Bitta va yagona barcha uchun xos nazm. Alisher Navoiy o‘z asarlarini ilohiy nizom asosida yaratgan. Endi nasr istilohi esa shu nizomning buzilishi, tizimdagisi durdek tizmalarning sochilishi Navoiyning fikricha bog‘dagi gullarning tekis tizimdan uzilib qaro yerga sochilmog‘ idir. Misradagi ikki tushuncha shu yo‘sinda tushunilsa tub mohiyati ochiladi.

Agar biz nasrga epik asar sifatida qaraydigan bo‘lsak, Navoiy asarlarining epik asarlari qaro yerga sochilgan gullarga o‘xshab qoladi, baholanki bu talqin bizning fikrimizcha o‘z tabiatiga to‘g‘ri kelmaydi. Ahmad Taroziy ham nazmni tizim yo‘sindida ilohiy nizomga asoslanganini ifodalab o‘tib «to‘gvrilik bobinda tartibli» nutqni nazm deb ataydi, nasrga esa varaqlar maydonida sochilganlik sifatini beradi. Demak, ko‘rinib turibdiki, Shayx Ahmad Taroziy ham tizimga asoslanib yaratilmagan nazmni nasr deb ataydi.

Jadid adabiyoti namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat nazm va nasrni biroz o‘zgacha talqin qilgan va Navoiyni fikrlarini davom ettirgan holda ikki istilohni teskarisini qo‘llaydi, ya’ni adib asarlar 2 yo‘sindan birida yozilishini aytadi, sochim (nazm) yoki tizim (nasr). Sochimda vazn va qofiya kerak emas deydi so‘zlarning san’atkorona ekanligining o‘zi yetarli. Vazn va qofiya esa tizimli asarlarga kerak deya Zahriddin Muhammad Boburdan misol keltiradi:

Boburning tizim (nasr) asarlaridan:

Dahrning men ko‘rmagan javru javosi qoldimu
Xasta ko‘nglum chekmagan dardu balosi qoldimu

Boburning sochim (nazm) asarlaridan deya «Boburnoma»dan bir jumlanı keltiradi.

Bu o‘rnlarda Abdurauf Fitrat adabiyotshunos olimligidan tashqari millatparvar shoir sifatida namoyon bo‘ladi. Adib She’r yozishda barmoq vazni afzalligini ta’kidlab fikrlarini asoslab o‘tadi. Shu ma’noda she’rga she’r bo‘lishi uchun vazn va qofiyaning asossiz ekanligini izohlaydi, agar vazn va qofiyaga solinsa tizimga (nasr) ga aylanib qolishini misollar bilan keltiradi. 20-asr davridagi talqinlarga qaraganimizda bu ikki istilohning biroz o‘zgacha qo‘llanganligini kuzatamiz.

Qadim-qadimdan qo‘llanib kelinayotgan nasr va nazm tushunchalarini ma’nosini va vazifalarini izohlashda Navoiy hazratlarining fikrlariga tayangan holda isloh etilsa bizningcha to‘g‘riroq bo‘ladi. Navoiy asarlarining nazmi shundayki, buni hamma o‘qishi mumkin lekin tushunchalar o‘zgacha bo‘ladi kimdir asardagi ishqni majoziy tushunsa, xos kishilar bu majoz orqali Haq visoliga umid bog‘lashni tushunishadi mana bu asarlar nizomi kuchli bo‘lgan o‘tkir tizimli ijod namunasi. Bizning nazarimizda, Hazrat Navoiy baytida keltirilgan nazm va nasrga she’riy va



epik sifat tamoyilida emas, balki bir asarning tizimga solinishi, mukammallikda yaratilgan yoki badiiyati jihatdan bo'sh, har taraflama to'kis bo'limgan asarlarga nisbatan nazm va nasr istilohini qo'llagan.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda bizning talqinimizcha she'riy asarlar o'rniga nazm va epik asarlar o'rniga nasr istilohlarining ishlatalishi o'z vazifasini o'tamay qoladi, boisi epik asar ham, she'riy asar ham tizimli nizomga asoslangan badiiy mukammalikda yoziladi yoki aksincha bo'lishi ham mumkin shunday holatlarda nasr istilohini ishlatsak muvofiq bo'ladi.

Fikrimizni muxtasar qilgan holda, Navoiy ijodidagi nazm va narsni alohida, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan epik yoki she'riy emas, balki bir tizimdagi holatning buzilgan shakli, bir muayyan asarning badiiyat jihatdan to'kislik yoki noto'kislik assosida yaratilishiga nisbatan nazm va nasr istilohini ishlatish borasida o'z fikrlarimizni yuqoridagi adabiyotshunos olimlar qarashlari bilan qiylab, bu istilohlarni Hazrat Navoiy misralariga tayanib talqin qilinsa muammoning mohiyati oydinlashadi degan xulosaga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Ahmad Taroziy «Funun ul-balag'a» Xazina, 1996.
2. Alisher Navoiy «Xamsa». Nashrga tayyorlovchi O'.Yo'ldoshev, -Toshkent: «Navro'z»nashriyoti, 2019.
3. Abdurauf Fitrat «Tanlangan asarlar» 4 jild Toshkent «Ma'naviyat» 2006
4. Navoiy asarlarining izohli lug'ati 4 tomlik 3-tomi. O'zbekiston SSR «Fan» nashriyoti Toshkent-1984.
5. Dilnavoz Yusupova «Aruz va mumtoz poetikaga kirish» Toshkent: Akaddmnashr, 2020.
6. Arabcha-o'zbekcha lug'at ziyouz.com



BIOLOGIYA DARSLARIDA VITAMINLAR HAQIDA

Ismailova Shahlo Ne'matovna

Namangan viloyati Uychi tumani
31 – maktab biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada biologiya darslarida vitaminlarning inson organizmizdagi ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Vitaminlar, askorbin kislota, A, B, vitaminlar, suvda eimaydigan

Vitaminlar haqidagi ta'lilot – vitaminologiya hozirgi vaqtida mustaqil fan tarmog'idir. Vaholanki, bundan 100 yil oldin organizmning normal hayot kechirishi uchun oqsil, uglevod va yog'lar, mineral moddalar va suvning qabul qilinishini yetarli deb hisoblaganlar. Lekin amaliyot va tajribalarning ko'rsatishicha, organizmning normal rivojlanishi va o'sishi uchun bu moddalarning o'zi yetarli emas ekan. Ovqat tarkibida qandaydir moddalarning yetishmasligi bilan sodir bo'ladigan kasalliklar epidemik xarakterga ega bo'lган. XIX asrda singa kasalligidan letal holatlar 70-80% ga yetgan. Ayni shu vaqtida “beri-beri” kasalligi Janubi-Sharqiy Osiyo va Yaponiya davlatlarida keng tarqaldi. Yaponianing 30% ga yaqin aholisi shu kasallikka chalingan.

Yapon shifokori K.Takaki go'sh, sut va yangi sabzavotlarda “beri-beri” kasalligini oldini oladigan modda bor, degan xulosaga kelgan. Keyinchalik golland shifokori K.Eykman Yava orolida ishlab, u yerning aholisi asosan tozalangan guruch bilan ovqatlangani, tovuqlarga ham tozalangan guruch berilganda odamlardagi kabi “beri-beri” kasaliga o'xshagan turining rivojlanishini ko'rsatib bergan. K.Eykman tovuqlarni tozalanmagan guruch bilan boqishganda, ularning sog'ayishini kuzatgan. Bu ma'lumotlar asosida guruch po'stlog'ida davolash xususiyatiga ega bo'lган noma'lum modda bor degan xulosaga kelgan. Haqiqatan ham, guruch po'stlog'ida odan organizmida normal hayotni ta'minlaydigan moddalar borligini isbotlab berdi.

Vitaminlar haqidagi ta'lilotning rivojlanishi N.Lunin nomi bilan ham bog'liqidir. Olim ovqat tarkibida oqsil, uglevod, yog', tuz va suvdan tashqari hayot uchun zarur bo'lган almashtirib bo'lmaydigan qandaydir noma'lum modda bor, degan xulosaga kelgan. K.Funk birinchi bo'lib kristall holda ajratib olingan “beri-beri” kasalligi rivojlanis hining oldini olgan organik moddani topgan va o'z tarkibida aminoguruhlarni saqlagani uchun bu noma'lum moddalarni “Vitaminlar” deb atashni taklif etgan (lat. vita – hayot deganidir). Darhaqiqat, vitaminlarning ko'pchiligi o'zining tarkibida aminoguruhlarni saqlamasida ham “vitaminlar” deb nomlanishi biologiya va tibbiyotda mustahkam.

Odam organizmida ovqat va ichak bakteriyalari vitaminlar manbai hisoblanadi. Ichak bakteriyalari ko'p vitaminlarni o'zlari sintezlaydilar va vitaminlarning organizmga tushishida muhim manba hisoblanadi.

Shuningdek, ba'zilari organizmda ma'lum miqdorda sintezlanadigan vitaminlarga o'xshab ta'sir etadigan turli kimyoviy moddalar guruhi tafovut etiladi; odam va ba'zi hayvonlar uchun bu moddalar vitaminsimon moddalar guruhiga kiritilgan. Ularga xolin, lipoat kislota, B₁₅ vitamini (pangamat kislota), orotat kislota, inozit, ubixinon, paraaminobenzoat kislota, karnitin, linol va linoleat kislotalari, vitamin U (yazvaga qarshi omil) kabilar kiradi.

Fiziologik ta'siri bo'yicha vitaminlarni quyidagi guruhlarga b'olish mumkin:

1. Organizmning umuniy rezistentligini oshiruvchi vitaminlar: B₁, B₂, PP, A, C.
2. Antigemorragik vitaminlar: C, R, K.
3. Antianemik vitaminlar: B₁₂, folat kislota, C.
4. Antiinfektsion vitaminlar: A,C.
5. Ko'rishni boshqaruvchi vitaminlar: A, B₂, C.

Vitaminlar iste'mol omillari bo'lib, juda kam miqdorda saqlanadilar va organizmdagi biokimyoviy, fiziologik jarayonlarning normal kechishida, butun modda almashinuvining boshqarilishida qatnashadilar. Modda almashinuvining buzilishi ko'pincha organizmga vitaminlarning kam qabul qilinishi, ovqat tarkibida bo'lmasligi yoki ularning organizmda hazm bo'lishi buzilishi bilan bog'liqidir. Natijada avitaminoz holati rivojlanadi – ovqatda vitaminning umuman bo'lmasligi yoki organizmda o'zlashtirilishining buzilishi sababli kasallik vujudga keladi.

Ayrim vitaminlar ovqat bilan birga o'tmishdosolar shaklida – provitaminlar ko'rinishida bo'ladi va ular to'qimalarda vitaminlarning biologik faol shakllariga aylanadi.



Ichaklarda so’rilganda o’tgan yog’da eruvchi vitaminlar to’qimalarda to’planadi; suvda eriydigan vitaminlar kofermentlarga aylanadi va apoferment bilan bog’langan holda murakkab ferment tarkibiga kiradi. Fermentlarning yashash muddati chegaralangan bo’lganligi sababli kofermentlar parchalanadilar va organizmdan turli metabolitlar ko’rinishida chiqarib yuboriladi. Yog’da eriydigan vitaminlar ham katabolizmga uchraydi, lekin ular suvda eriydigan vitaminlarga nisbatan sekinroq parchalanadi. Shu sababli ham ovqat bilan birga vitaminlar doimo kirib turishi kerak.

Vitaminlar disbalansi yetishmagan (manfiy balans) va ortiqcha (musbat balans) ko’rinishlarida namoyon bo’ladi. Vitaminning qisman yetishmasligi gipovitaminoz, judayam tanqis bo’lishi – avitaminoz deb ataladi. Bitta vitaminning yetishmasligi monogipovitaminoz, bir nechtasining yetishmasligi esa – poligipovitaminoz deb ataladi. Osiyo, Afrika va Janubiy Amerika davlatlarining ayrim hududlarida aholi bir xil o’simlik tabiatiga ega bo’lgan ovqat mahsulotlarini iste’mol qilganda avitaminoz holatlari uchraydi. To’qimalarda vitaminlarning ortiqcha to’planishi gipervitaminoz deb ataladi. U yog’da eriydigan vitaminlar uchun xos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To’raqulov “BIOXIMIYA” .Toshkent. 1996 y.
- 2 Imomaliyev A “O’simliklar bioximiysi” .Toshkent. 1987 y.
- 3 To’raqulov “Molikulyar biologiya”. Toshkent .1985 y.
- 4 Qosimov A “Bioximiya” Toshkent . 1988 y.



ZIRAVOR O'SIMLIKLARNI KO'PAYTIRISH MUAMMOLARI

Maxammadjonova Dilobarxon Abdumutallib qizi

Farg'ona Davlat Universiteti tabiiy fanlar fakulteti 1-kurs magistranti
maxammadjonovmuzaffar314@gmail.com Tel: +99890 784 52 92

Xashimova Iqbolxon Ilhomjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti tabiiy fanlar fakulteti 1-kurs magistranti
eminovairoda@gmail.com Tel: +99891 650 47 91

Annotatsiya. Texnologiya(biotexnologiya) da aholining bilim olishi,tabiatga nisbatan qiziqish uyg'otish,o'simliklar tabiatimizning boyligi,uni sarab – avaylash va himoya qilish har birimizning burchimiz ekanligini odamlarongiga singdirish

Kalit

so'zlar: “Qizil kitob”, o'simliklar, ekologiya, osimliklar turlari, biologik xilma-xillik, ekologik muammolar, “ziravorlar sultonı” – zafaron

Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-modda

Bugungi kunda ziravor o'simliklarga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, butun dunyo pandemiyasida insonlar sog'lig'iga alohida e'tibor berishi, salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi, qarigan va surunkali kasalliklarga chalingan insonlar immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalarni afzal ko'rishi, tabiiy vositalarning mutloq zararsizligi va foydasi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar hajmining va xalqaro bozorlardagi ziravor o'simliklarga bo'lgan talabning keskin ortishiga sabab bo'ldi.

Jumladan, 2020-yilda dunyo mamlakatlarda dorivor va ziravor o'simliklar asosidagi vositalar aylanmasi 100,9 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, yillik o'sish 7,2 % dan iborat bo'lgan. O'zbekiston tabiiy va geografik jihatdan dorivor va ziravor o'simliklarga boy hudud hisoblanib, respublikada tabiiy holda mavjud 4500 turga yaqin yuksak o'simliklarning 1200 ga yaqini dorivorlik xususiyatiga ega. Ularning ko'pchiligi ziravorlik xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklardir.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda dorivor va ziravor o'simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o'suvchi ziravor o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslарini yaratib berdi. Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o'simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda plantatsiya usulida ko'paytirish va qayta ishslashni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

O'tgan davr mobaynida 9 ta dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan ziravor o'simliklar yetishtirish klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan moychechak, kovrak, limono't, qalampir yalpiz, qizilmiya, za'faron, oddiy zira va boshqa dorivor va ziravor o'simliklar yetishtirilmoqda. Ularning faoliyati natijasida o'tgan 2021-yilda 4 ta xorijiy davlatga 1,7 mln AQSH dollar qiymatidagi ziravor o'simliklar xom ashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilindi.

Bugun sohaga e'tiborning ortishi hamda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish natijasida respublikada 100 dan ortiq turdag'i dorivor va ziravor o'simliklarga rasmiy tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan bo'lib, ushbu dorivor va ziravor o'simliklarning asosiy qismi tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi. Ushbu tabiiy holda o'suvchi ziravor o'simliklarning xomashyo zahirasi chegaralangan bo'lib, ularni muhofaza qilish, bioekologik xususiyatlarini o'rganish, xomashyo zahirasidan to'g'ri foydalanish va ko'paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun, O'zbekistonda farmatsevtika sanoatining ehtiyojarini dorivor o'simliklar xomashyosi bilan ta'minlash, mahalliy florani yangi introdutsent o'simlik turlari bilan boyitish va ularni yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Xususan, 2020-yil boshida respublikaning barcha hududlarida jami 11,5 ming ga yer maydonida 27 turdag'i dorivor va ziravor o'simliklar plantatsiyalari mavjud bo'lgan bo'lsa, 2021-yil davomida dorivor o'simliklar plantatsiyalari 162 ta subyektlar tomonidan 15,8 ming ga yetkazilib, ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan 45 turdag'i dorivor va ziravor o'simliklarning 17,3



ming tonna xomashyosi yetishtirildi.

Ziravor o’simliklar madaniy plantatsiyalarining kengayib borishi va ishlab chiqarish hajmlarining ortishi bilan birgalikda sohaning eksport salohiyati kuchaytirilmoqda. 2020-yil yakunida 29 ta xorijiy davlatga 16,0 ming tonnadan ortiq 50,0 mln AQSH dollari qiymatidagi dorivor va ziravor o’simliklar xomashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilingan bo‘lsa, 2021-yil yakuni bilan bu ko’rsatkichda o’sish kuzatilib, dunyoning 37 ta davlatlariga 55 mln dollar qiymatidagi mahsulotlar eksporti amalga oshirildi. Eksport geografiyasining AQSH va Yevropa davlatlari hisobiga ortib borishi sohaning imkoniyati katta ekanligidan dalolatdir. Shuningdek, faol qo’llaniladigan ziravor va dorivor o’simliklar madaniy plantatsiyalarini yaratish uchun birlamchi urug’chilikni yo‘lga qo‘yish va onalik ko‘chatzorlarini tashkil etish sohaning tub ildizi bo‘lib, bugungi kunda 16 ta subyektlar tomonidan 22 turdagи dorivor va ziravor o’simliklar urug‘ va ko‘chatlari yetishtirilmoqda.

Aytish joizki, sohaning rivojlanib borishi barobarida aholining tabiiy dori vositalariga qiziqishi va iste’moli ko‘payib, xabardorligi ortib bormoqda. Bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirib, aholining nafaqat iste’mol madaniyatini oshirish, balki o‘z tomorqalarida ziravor o’simliklar yetishtirishga jalb etish, “bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida klasterlar va eksport qiluvchilar hamkorligida ziravor o’simliklarni ekish, birlamchi qayta ishlab, ichki va tashqi bozorlarga yo‘naltirish orqali o‘z-o‘zini band qilish, aholi daromadini ko‘paytirish lozim.

Shunday o’simliklardan biri ham dorivor, ham ziravor bo‘lgan oziq-ovqat, farmatsevtika va parfyumeriya sanoati uchun qimmatbaho xomashyo hisoblangan “ziravorlar sulton” nomi bilan mashhur bo‘lgan o’simlik – za’faron bugungi kunda dunyodagi eng qimmat o’simlik hisoblanadi. Za’faron O’rta yer dengizi, Yaqin Sharq, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarida, jumladan Eron, Hindiston, Turkiya, Gretsya, Italiya, Pokiston, AQSH, Ozarbayjon, Rossiya, shuningdek, bugungi kunda O’zbekiston hududlarida ham katta plantatsiyalarda yetishtirilmoqda. Ushbu o’simlik balandligi 10-30 sm ga yetadigan ko‘p yillik o’t o’simlik bo‘lib, ildizi 2-3 sm, barglari tik, bigizsimon ko‘rinishda, gullari zich to‘plamda joylashadi. O’simlikda to‘p barglar gullah davridan 10-15 kun oldin paydo bo‘ladi. Za’faronning gullari yirik, pushti rangda bo‘lib, oktyabr oyining oxiri va noyabr oyining biringchi yarmida gullaydi. Gul barglarining ichida changchilar – qizil, urug’chilar – to‘q sariq rangda bo‘ladi. Urug‘ hosil qilmasligi sababli vegetativ usul bilan (piyozboshchalar orqali) ko‘paytiriladi.

Muhofaza choraları. Qizil kitobga kiritilgan. Izlanishni davom ettirish, mabodo topilsa, u erni nazorat ostiga olish va ziravor o’simlikni ekip o’strish lozim.

Bunday misollarni ko’plab keltirishimiz mumkin. Zeroiki, tabiat umumiylarini uyimiz, o’simliklarni asrab – avaylash har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- 1.O’. Pratov, A. To’xtayev, F.Azimova „Botanika“ 5-sinf uchun darslik T – „O’zbekiston“ -2011
2. O’. Pratov, A. To’xtayev, F.Azimova „Botanika“6-sinf uchun darslik T – „O’zbekiston“
3. B.F.doktori, fan arbobi, professor O’. Pratov va b.f doktori F. O’. Xasanov tahriri ostida O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qumitasining raisi va b.f. doktori B.Yo.Tuxtaev, b.f. doktori F.O’.Xasanov, b.f. doktori, professor I.V.Belolipov – O’zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”i-“Toshkent”-2003
4. Internet”Google” ma’lumotlari



OROL DENGIZI. OROL DENGIZI OQIBATIDA KELIB CHIQAYOTGAN GLOBAL ISISH MUOMMOSI.

Po'latova Ganjina Rashid qizi

Guliston Davlat Universiteti

Ekologiya va atrof-muhit

muhofazasi yo'nalishi talabasi

polatovaganjina692@gmail.com

+998999244502

Anotatsiya: Ushbu maqolada Orol dengizi uning ma'muriy jihatdan tariflangan. Undan tashqari Orol degizining qurib borishi oqibatida kelib chiqayotgan muommolardan biri Orol dengizi atrofidagi joylarda havoning ifloslanishi va shu yerning aholisining kasallanishi haqida yozilgan.

Kalit so'z: Orol dengizi, global isish, baliqlar, ma'muriy, dengiz

Orol dengizi — O'rta Osiyodagi eng katta berk ko'l. Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubi-g'arbiy qismi O'zbekiston (Qoraqalpog'iston), shimoli-sharqi qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tganasning 60-yillariga cha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km² ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi. Dengiz shimoli-sharqdan janubi-g'arbgaga cho'zilgan, uz. 428 km, eng keng joyi 235 km (45° shahrik.) bo'lgan. Havzasining maydoni 690 ming km², suvining hajmi 1000 km³, o'rtacha chuq. 16,5 m atrofida o'zgarib turgan. Havzasining kattaligi uchun dengiz deb atalgan. Orol dengizi yuqori pliotsenda Yer po'stining egilgan yeridagi botiqda hosil bo'lgan. Tubining relyefi (g'arbiy qismini hisobga olmaganda) tekis. Orol dengizida juda ko'p yarim orol va qo'ltilqlar bo'lgan. Shimol qirg'oklarida eng katta qo'ltilqlaridan Chernishev, Paskevich, Sarichig'anoq, Perovskiy, janubi-sharqiy va sharqiy qirg'oqlarida Tushbas, Ashshibas, Oqsag'a, Suluv va boshqa, Amudaryo bilan Sirdaryo quyiladigan joylarida Ajiboy, Tolliq, Jiltirbas qo'ltilklari, Qulonli va Mo'ynoq yirik yarim orollar bo'lgan. Orol dengizida qadimdan suv sathi goh ko'tarilib, goh pasayib turgan. Keyingi geologik davrda Sariqamish va O'zbo'y orqali Orol dengizi suvi vaqt-vaqt bilan Kaspiyga quyilgan, suv sathi ancha baland bo'lib, jan.vajan.-sharqidagi bir necha ming km² maydonli sohil suv ostida bo'lgan. Orol dengizi unchalik chuqur emas. Chuqur joylari g'arbiy qismida. Qoraqalpog'iston Ustyurta yonida chuq. 69 m gacha yetgan.

Orol dengizi qirg'oklarining morfologik tuzilishi juda murakkab. Ular bir-biridan ba'zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Shimoliy qirg'og'i baland, ayrim yerkari past, chuqur qo'ltilqlar bor. Sharqiy qirg'og'i past; qumli, juda ko'p mayda qo'ltilq va orollar bo'lgan. Janubiy qirg'og'i Amudaryo deltasidan hosil bo'lgan.

G'arbiy qirg'og'i kam qirqilgan va Ustyurt chinkidan iborat. Orol dengizida 300 dan ortiq orol bo'lgan. Ularning 80% dengizning janubi-sharqiy qismida. Eng kattalari Ko'korol (273 km²), Vozrojdeniye (216 km²) va Borsakelmas (133 km²) edi. Dengizga Amudaryo bilan Sirdaryo quyiladi. 60-yillargacha yiliga Amudaryo Orol dengizi ga 38,6 km³, Sirdaryo esa 14,5 km³ suv olib borgan. Suv balansida yog'inlar ham muhim o'rinnegallagan. Dengiz akvatoriyasiga yiliga 82–176 mm yog'in yog'adi. Atrofdan dengizga yiliga 5,5 km³ yer osti suvlari qo'shilib turgan. Mutlaq dengiz sathi 2000-yillarning boshlarida 22-yillarning oxiridagi darajadan 1950 m pastroqda 31 m gacha pasayib ketdi. 2001-yilda Buyuk Orol dengizi (Janubiy) G'arbiy va Sharqqa bo'lingan. 2001-yilda. 2003-yilda dastlabki maydonning to'rtadan bir qismi Orol dengizi va 10% ga yaqinini dengiz suvi qoplagan. Bugungi kunda eski chuqur dengiz o'rniga umumiy maydoni 38000 km² bo'lgan yangi qum va tuzli cho'llar mavjud.

Dengiz cho'l zonasida joylashganidan uning yuzasidan har yili 1 m qalinlikdagi suv bug'lanadi. Bu esa keyingi davrda dengizga daryolar olib kelgan suv, yog'in va yer osti suvlardan ortikdir. Shuning uchun iklimiy o'zgarishlar natijasida Orol dengizi suvining sat-hi yillar davomida o'zgarib turgan. Mas, 1785-yildan dengizda suv sathi ko'tarila boshlagan bo'lsa, 1825-yildan pasaygan, 1835—50 yillarda yana ko'tarilgan, 1862-yil kamaygan. Ko'korol 1880-yilda yarim orolga aylanib qolgan. 1881-yil suv sathi pasaygan. 1885-yildan Orol dengizida suv sathi yana



ko‘tarila boshlagan. 1899-yilga kelib Ko‘korol yarim orol orol bo‘lib qolgan. 1919-yil dengiz maydoni 67300 km², suv miqdori 1087 km³ bo‘lgan bo‘lsa, 1935-yilga kelib maydoni 69670 km², suvning miqdori 1153 km³ ga ko‘paydi. Keyingi bir yarim asr mobaynida dengiz suvi sathi ancha o‘zgargan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi
2. <https://xs.uz/uz/post/orol-dengizi-ketdi-lekin-odamlar-qoldi-biz-ular-haqida-qajgurishimiz-kerak>
3. <https://kun.uz/uz/15165753>



ПЫЛЬ. НЕГАТИВНОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ ПЫЛИ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ И НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА

Po'latova Ganjina Rashid qizi

Guliston Davlat Universiteti

Ekologiya va atrof-muhit yo'nalishi 2-kurs talabasi

polatovaganjina692@gmail.com

+998999244502

Xolmatov Islomjon G'ulom o'g'li

Guliston Davlat Universiteti

Rus tili va adabiyoti yo'nalishi 4 kurs talabasi

Аннотация

В статье речь идет про пылевых выбросов и об экологических проблемах влияния на здоровье граждан . В статье так же говориться и об причины появления подобных проблем и их решения.

Ключевые слова

Пыль, атмосфера, пыльные выбросы, загрязнение, воздух, здоровье .

Влияние пылевых выбросов на здоровье человека

Промышленная пыль может приводить к заболеваниям верхних дыхательных путей, бронхолегочным заболеваниям, кожного покрова, слизистых оболочек глаз, органов пищеварения.

Наибольшая опасность от воздействия пыли на человека является заболевание пневмокониозом - пылевым заболеванием легких от воздействия всех видов пылей. При воздействии кварцевой пыли на организм человека может возникнуть силикоз, угольной пыли - антракоз, железосодержащей пыли - сидероз, асbestовой - асbestоз, тальковой - талькоз, алюминиевой -алюминоз и т.д. Наиболее тяжкое заболевание - силикоз, для которого характерно достаточно быстрое развитие. Силикоз может возникнуть за 5-10 лет работы, в отличие от других видов пневмокониозов, развивающихся за 15-20 лет работы на пыльных производствах. В начале заболевания силикоза наблюдаются рассеянные небольшие узелки на рентгенограмме легких, прослушиваются небольшие шумы. Возникает боль в груди, одышка, сухой кашель. Затем кашель усиливается, появляется мокрота, бронхит, в легких происходят большие изменения. Далее одышка возникает даже при легкой работе, появляется кровохарканье, поднимается температура тела, наступает общая интоксикация организма. Исследования легких на этой стадии показывают их массивное поражение. Возникают инфекционные заболевания и пневмония.

Одним из смешанных заболеваний является силикотуберкулез, развитие которого не прекращается даже при завершении работы в условиях запыленного воздуха.

Воздействие пыли на кожный покров приводит к раздражению, зуду, неприятным ощущениям, припухлостям, т.е. к воспалительным процессам. При проникновении пылинок в сальные и потовые железы происходит их закупорка. Появляются трещины, сыпи, сухость кожи, гнойничковые заболевания. В условиях горячего производства закупорка потовых желез затрудняет терморегуляцию человека. Некоторые токсичные пыли (хромовые соли, известье, сода, мышьяк, карбид кальция и др.) на химических производствах могут привести к химическому раздражению кожных покровов.

Воздействие пыли (например, пековой) на слизистую оболочку глаз может привести к конъюнктивиту (слезоточивость, припухлость, нагноение), повышенной чувствительности к солнечному свету (слезоточие, светобоязнь).

Действие пыли на верхние дыхательные пути также приводит к их раздражению, воспалению, поражению слизистой оболочки носа, появлению першения в горле и кашлю.

Влияние пылевых выбросов на окружающую среду

Пыль, оседающая на листьях, снижает доступ света и приводит к усиливающему эффекту поглощения тепловой радиации, кроме того, возможна закупорка листьев пылевыми частицами. Загрязнение почв и воды вызывает разные повреждения растений.

Экологические последствия пылевых выбросов на сельское хозяйство выражаются в снижении почвенного плодородия и урожайности сельскохозяйственных культур; ухудшении



качества продукции растениеводства; снижении эффективности применения удобрений.

Сейчас в земной атмосфере взвешено 5 мл.тонн пылевых частиц, выбрасываемых промышленными предприятиями. По данным исследованиям, проводимых в США вред, причиняемый пылевыми выбросами сельскохозяйственным культурам, лесам, зданиям, предприятиям, памятникам культуры оценивается нескольким миллиардам долларов в год.

Ухудшение качества выпускаемой продукции

Присутствие нерегламентированных примесей снижает качество и конкурентоспособность продукции. Пыль может оказывать нежелательное влияние на ход технологического процесса и быть причиной порчи продукции (например, при изготовлении точных механизмов и приборов и т.п.). Довольно часто на качество окраски влияет витание пыли.

Преждевременный износ технологического оборудования

Пыль, проникая в движущиеся части технологического оборудования, приводит к уменьшению срока службы оборудования и его преждевременному выходу из строя. В связи с этим расходы на проведение ремонтных работ значительны, а простои оборудования снижают общие производственные показатели. Например, пыль, попавшая в устройства, считающие с ленты или диска, может вызвать механическое повреждение носителей информации. Она быстро аккумулируется на заряженных частях оборудования. При высокой запыленности охлаждающая способность снижается, при этом части оборудования, имеющие слой пыли, работают при температурах, превышающих расчетные величины. Пыль оседает внутри оборудования в местах с электростатическим зарядом, ухудшает проводимость, образует проводящие мостики и т.д. При эксплуатации турбокомпрессоров выявляются случаи износа кромок лопаток от попадания мелких частиц пыли, что вызывает разбалансировку ротора, а значит и выход из строя подшипникового узла.

Пылевые выбросы вызывают ускорение износа и разрушение железнодорожного полотна. Возникают дополнительные затраты на очистку и ремонт путей.

Взрыво- и пожароопасность

Заметим, что общая запыленность производства не только затрудняет осмотр и оценку состояния конструкций и механизмов, но и повышает риск возникновения аварийных ситуаций.

Большинство пылей пищевых производств, а также угольная, торфянная, магниевая, алюминиевая и др. способны образовывать с воздухом взрывоопасные смеси, отложения пыли представляют собой большую пожарную опасность. При взрыве образуется большое количество газов. Их давление и образующаяся ударная волна может привести к разрушению конструкций, оборудования и нанесению травм различной тяжести обслуживающему данное технологическое оборудование персоналу. Пыли опасные во взвешенном состоянии пожароопасны и в осевшем состоянии. Локальный взрыв приводит во взвешенное состояние осевшую пыль, что

может способствовать еще большему взрыву, который способен разрушить емкости для хранения пылевидных материалов, например емкости для бестарного хранения муки на хлебозаводе.

Статистика США свидетельствует: за год происходит 1100 взрывов пыли, насчитывается свыше 2000 погибших, убытки составляют 100 млн. долларов.

Потеря ценных сырьевых продуктов

Пыль может состоять из ценных сырьевых продуктов. Соответственно ее выбросы могут привести к безвозвратным потерям данного сырья. Улавливание таких пылей и утилизация дает возможность возвратить пыль в производство или использовать ее для создания новых материалов. К таким пылям относятся цементная пыль, крахмальная, доломитовая, древесная, шамотная, агломерационная, зольная, казеиновая от дуговых электропечей, цветных металлов и многие другие.

Выходы

Для долгосрочной эффективной работы промышленного предприятия, для повышения качества выпускаемой продукции, получения дополнительной прибыли от реализации собранного сырья и материалов, повышения производительности вследствие сокращения времени простоев оборудования, снижения интенсивности износа и повышения безопасность производства, увеличения общего срока службы оборудования, снижения расходов на запчасти, повышения инвестиционной привлекательности производства в целом,



повышения качества жизни, повышения имиджа фирмы необходимо внедрение на пыльных производствах современных систем аспирации.

Использованные литературы и источники:

1. [https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/ambient-\(outdoor\)-air-quality-and-health](https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/ambient-(outdoor)-air-quality-and-health)
- 2.<https://www.2gdp.by/novosti/1150-vliyanie-zagryaznenogo-vozdukha-na-zdorove-cheloveka>
- 3.<https://naukarus.com/o-negativnom-vozdeystvii-pyli-na-okruzhayushchuyu-sredu-i-cheloveka>



**BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA “TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODIDAN
FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH**

**Ro'zmetova Mehribon Xudaynazarovna
Yusupova Shaxlo Yuldashevna
Urganch shaxar 19- son IDUMning
biologiya fani o'qituvchilari**

Annotatsiya: Ushbu metod o'tilgan (chorak yoki yilida tugagan) predmeti yoki bo'lim barcha mavzularini o'quvchilar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zi: o'quvchi, mash'ulit, tayanch, vaqt, baho, chorak, predmet.

O'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki predmetining biron-bir bo'limi tugallanganda) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu metodni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Metoddan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'quvchilar guruhlarga (sharoitga qarab) ajratiladi;
- o'quvchilar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- o'quvchilar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- o'quvchilar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birlgilikda har bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkon bo'lsa) tanishtiriladi;
- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarining farqlarni aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustah

«Tushunchalar tahlili» metodidan bir darsning o'zida dars boshlanishida o'tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalish mumkin.

<i>Tushunchalar</i>	<i>Mazmuni</i>
<i>Botanika</i>	
<i>Biologiya</i>	
<i>Zoologiya</i>	
<i>Mitoz</i>	
<i>Meyoz</i>	
<i>Genetika</i>	
<i>Xromosoma</i>	
<i>Gen</i>	
<i>Neyron</i>	

Foydalilaniladigan adabiyotlari

1. O'quv jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash yo'llari. Uslubiy qo'llanma. Akademik S.S.G'ulomov umumiy rahbarligi ostida. – T.; TDIU 2005. 90 b, 105 b.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahorat. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.



XORAZM VILOYATI SHAROITIDA KARTOSHKADAN YUQORI HOSIL OLİSHDA ORGANOMINERAL O'G'ITLARNING ROLI

Rustamboyeva Nazokat Qudrat qizi

Urganch Davlat Universiteti

Biologiya mutaxasisligi magistranti

Telefon:+998(97) 603 72 13

nazokatrustamboyeva_4546@inbox.uz

